
Xotira va qadrlash kunida Toshloqdagi “Motamsaro ona” haykali poyiga gulchambarlar qo’yildi

Bugun 9 may - "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan Zarkentdagi xotira maydonida ikkinchi jahon urushida qurbon bo'lgan yurtdoshlarimiz va o'tganlar xotirasini yodga olish marosimi o'tkazildi.

Unda Toshloq tumani hokimi Abduqahhor Djurabayev boshchiligidagi sektor rahbarlari, mehnat fahriylari, harbiy xizmatchilar, yoshlar va jamoatchilik vakillari qatnashdilar.

Xotira maydonida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimiz xotirasi yod etilib, Motamsaro ona haykali poyiga gul qo'yildi.

2024-05-08 17:57:00